

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Ruhiy kasalliklarning oldini olish uchun mahalliy dorivor o'simliklar asosida yangi neyroprotektorli substansiya olish texnologiyasini yaratish  	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - neyroprotektorli yig'maning ilmiy asoslangan tarkibini ishlab chiqiladi va spetsifik farmakologik faolligini aniqlanadi; - neyroprotektorli yig'madan quruq ekstrakt olishni texnologiyasini ishlab chiqiladi va ekstraksiya jarayonini o'tkazish uchun biologik faol moddalarning to'liq ajralib chiqishini ta'minlaydigan optimal (mo'tadil) sharoitlarni tanlanadi. - quruq ekstrakt sifat ko'rsatkichlarini va yaroqlilik muddatini aniqlanadi; - yangi o'simlik preparatining mikrobiologik tozaligini va kimyoviy tarkibi aniqlanadi; - quruq ekstraktida biologik faol moddalar miqdori aniqlash usullarini ishlab chiqiladi; - dorivor o'simlik yig'masidan olingan neyroprotektorli quruq ekstraktning o'tkir zaharliligi va bezararligini o'rganiladi; - quruq ekstraktning surunkali zaharliligini o'rganiladi va yangi neyroprotektorli substansiya olish texnologiyasini ishlab chiqiladi; - ruhiy kasalliklarning oldini olish uchun mahalliy dorivor o'simliklar asosida yangi neyroprotektorli substansiya olish texnologiyasini yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazida sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog'liqni saqlash vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.